

## **ijro etuvchi direktori vazifalari:**

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi suv xo‘jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlari, shuningdek suv iste’molchilar uyushmalari va fermer xo‘jaliklarining melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini yetkazib berish yuzasidan buyurtmanomalarini umumlashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining kafolat xatlari bilan tasdiqlangan moliyaviy manbalar hamda tender savdolari asosida mamlakatimiz korxonalarida va xorijiy korxonalarda melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini ishlab chiqarish yuzasidan buyurtmanomalarni joylashtirish;

Joylashtirilgan buyurtmanomalarga muvofiq ishlab chiqariladigan melioratsiya texnikasi mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari uchun avans to‘lovlarini va uzil-kesil hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirish;

Lizing shartnomalari tuzish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi suv xo‘jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlari, shuningdek suv iste’molchilar uyushmalari va fermer xo‘jaliklariga melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berish;

Melioratsiya texnikasi mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari xarid qilishga mo‘ljallangan resurslarni shakllantirish uchun donorlarning, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining mablag‘larini imtiyozli asosda jalb etish; lizing shartnomalari bo‘yicha to‘lovlarining o‘z vaqtida tushishini nazorat qilish.